INGLIZ ANTROPONIMLARINING LINGVISTIK VA MADANIY TAHLILI

Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna
“Ingliz tili” kafedrasi professori, SamDChTI
gulchexraobrueva1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tilidagi antroponimlarning semantik va ramziy xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning tasnifi, etimologik kelib chiqishi hamda madaniy ahamiyati zamonaviy tilshunoslik nazariyasi doirasida o‘rganiladi. Tadqiqotda antroponimlarning tarixiy, madaniy va ramziy ma’nolarni aks ettiruvchi til birliklari sifatidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: semantika, antroponimlar, funksional, atoqli otlar, konsept, struktura, etimologiya, mifopoetik, jismoniy xususiyatlar, hodisa, tillararo, zamonaviy tilshunoslik

Kirish

Maqol va iboralarning boyligi milliy madaniyatlarning o‘ziga xosligi hamda ularning tarixiy ildizlarini aks ettiradi. Turli tillardagi maqol va iboralarni o‘rganish va qiyoslash ushbu xalqlarning madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday tadqiqotlar tarjimashunoslik uchun ham muhimdir, chunki hissiy-emotsional til birliklari tilning kelib chiqishi va uning sohiblari hayoti haqida qimmatli ma’lumot beradi. Emotsional matnlarni tahlil qilish orqali madaniy xususiyatlarni chuqurroq anglash mumkin.

Atoqli otlar har qanday tilning leksik tizimida muhim va murakkab qatlamni tashkil etadi hamda til va madaniyat kesishgan nuqtada alohida o‘rin egallaydi. Ular orasida antroponimlar — shaxslarni ifodalovchi nomlar — o‘zining semantik, funksional va ramziy xususiyatlari bilan alohida e’tiborga loyiqdir. Oddiy otlardan farqli ravishda, antroponimlar an’anaviy ravishda identifikatsiya vazifasini bajaradi, biroq zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari ularning semantik chuqurligi va madaniy yuklamasini ham alohida ta’kidlaydi.

Materiallar va metodlar

Antroponimlarning kelib chiqishi va etimologiyasini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi, chunki nomlarda tarixiy va madaniy asoslar mujassamlangan bo‘ladi. Ko‘plab madaniy va mifologik an’analarda shaxs nomi insonning ichki mohiyatini ifodalovchi ramz sifatida qaraladi.

Natijalar

Zamonaviy Angliyada bolaga tug‘ilganda odatda ikki ism beriladi: asosiy ism (personal name) va o‘rta ism (middle name). Asosiy ism muhimroq hisoblanadi va shaxsni aniqlovchi asosiy birlik sifatida xizmat qiladi. “Personal name” tushunchasi tug‘ilish vaqtida berilgan individual ismni anglatadi va rasmiy hujjatlarda qayd etilgan ilk nomlash shakllaridan biri hisoblanadi [13, 73].

Muhokama

O‘rta ism berish an’anasi bolaga bir nechta ism berish odatidan kelib chiqqan. Shu sababli, bolalarda bir nechta o‘rta ism uchrashi umuman o‘rta ismsiz bo‘lishidan ko‘ra ko‘proq kuzatiladi. Odatda to‘rttadan ortiq o‘rta ism berilmaydi, masalan: Charles Philip Arthur George, Andrew Albert Christian Edward yoki Anne Elisabeth Alice Louise. O‘rta ism, ayniqsa ism va familiya keng tarqalgan hollarda, shaxsni yanada individuallashtirish vazifasini bajaradi. XIV–XVI asrlarga oid tarixiy manbalarda ikki ismli shaxslar, masalan, John William Whytting yoki John Philipp

Capel kabi misollar uchraydi, biroq o‘sha davrda bu holat kam kuzatilgan. Hozirgi kunda qo‘shaloq ismlar ko‘proq ayollar orasida uchraydi va ular yagona ism sifatida qo‘llanadi: Mary Anne, Mary Jane, Sarah Jane yoki Una Nance Owen (“Una Nancy” shakli transkripsiya hisoblanadi) [24, 26].

Ingliz familiyalari orasida shotland, irland, fransuz va uels familiyalari mavjud. IX–XIII asrlarda skandinavlar G‘arbiy Shotlandiyaning katta qismini egallagan, Orkney va Shetland orollari esa XV asrgacha ularning nazoratida bo‘lgan. Natijada quyidagi qadimgi shotland familiyalari shakllangan: Godfrey, McIver, McColl, McCall, MacAuley. Fransuz ta’siri natijasida Bruce, Grant, Sinclair kabi familiyalar paydo bo‘lgan. XVII asr oxirida ko‘plab irland familiyalari inglizlashtirilgan: O’Breen → O’Brien, ONail → O’Neal. Keng tarqalgan irland familiyalari: Murphy, Kelly, Sullivan, Walsh, O’Brien, Ryan, Connor.
Shaxs ismlari va familiyalarining kelib chiqishi, rivojlanishi, tuzilishi va etimologiyasi haqida gapirganda, ularning semantikasi va badiiy asarlardagi funksiyalarini ham alohida qayd etish lozim. Viktor Vinogradov fikriga ko‘ra, badiiy uslubning muhim jihatlaridan biri ism, familiya va laqablarning tanlanishi, ularning tuzilishi hamda obrazli funksiyalaridir.

Toropovaning ta’kidlashicha, badiiy asarda har bir ism ma’lum bir ma’noni ifodalaydi va o‘zining barcha ma’no qirralarini namoyon etadi. Ko‘pincha ismning asosida insonning ijobiy xususiyati, ma’naviy sifati yoki xarakter belgisi yotadi. Buni Agatha Christie asarlaridagi ayol ismlari misolida ko‘rish mumkin.
Masalan, Beatrice ismi “baxt keltiruvchi”, Clara esa lotincha “yorqin”, “mashhur”, “ravshan” ma’nolarini bildiradi. Ayrim ismlar tashqi ko‘rinishni ham ifodalashi mumkin, masalan Annie — “go‘zal”. Ba’zi hollarda ism neytral yoki salbiy ma’noni ham ifodalaydi. Masalan, Paul ismi lotincha paulus so‘zidan kelib chiqib, “kichik” ma’nosini anglatadi.

Antroponimlarning ichki shakli quyidagilarni ifodalashi mumkin:
Kasb, qarindoshlik yoki jins:

George (dehqon), Thomas (egizak), Charles (erkak), Martha (xonim).

Diniy manbalar bilan bog‘liqlik:

John, Gabriel, Samuel, Christopher va boshqalar.

Kelib chiqish:

Barbara (begona), Francis (fransuz), Norman (shimollik).

Ota-onaning hissiy munosabati:

Amy (sevimli), Nathan (sovg‘a), David (aziz).

Shaxsiy yoki jismoniy xususiyatlar:

Agnes (pokiza), Alexander (himoyachi), Hilary (quvnoq), Linda (go‘zal), Rufus (qizil sochli).

Ba’zi antroponimlar hayvonlar, gullar, qimmatbaho toshlar yoki tabiat obyektlari bilan bog‘liq: Leo (arslon), Rachel (qo‘zi), Rosemary, Ruby, Crystal, Peter (qoya), Stella (yulduz).

Arthur va Ursula ismlari turli jinsga mansub bo‘lsa-da, ikkalasi ham “ayiq” ma’nosini anglatadigan so‘zlardan kelib chiqqan. Dastlab ular laqab sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik mustaqil ismga aylangan. Flora, Lily va Stephen kabi ismlar esa o‘simliklar olami bilan bog‘liqdir.

Shuningdek, ayrim antroponimlar geografik obyektlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular “mahalliy” antroponimlar sifatida qaraladi: Clyde, Douglas, Lynn, Shirley, Clayton va boshqalar.

Xulosa

Shunday qilib, antroponimlarning o‘ziga xosligi ularning semantik va ramziy mazmunida

namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ingliz ismlarining aksariyati xarakter yoki tasviriy ma’noga ega. Antroponimlar oddiy belgi emas, balki inson tabiatiga murakkab tarzda bog‘langan ramz hisoblanadi. Ko‘plab madaniy va tarixiy an’analarda yangi tug‘ilgan bolaning ismi uning mohiyatini ochib beruvchi unsur sifatida qaraladi. Shu sababli tarjimada atoqli otlar ko‘pincha transkripsiya orqali saqlab qolinadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Christie A. Poirot Investigates. New York: HarperCollins Publishers, 2001. - 272 p.
2. Christie A. Ten Little Niggers. - M.: Изд-во КАРО, 2008. - 256 с.
3. Christie A. The ABC Murders. - M.: Высш. шк., 1980. - 334 с.
4. Christie A. The Labours of Hercules. - M.: Высш. шк, 1991. - 96 с.
5. Christie A. The Mystery of King's Abbot. - M.: Высш. шк., 1980. - 230 с.
6. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language, second edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 325 p.
7. Rowling J.K. Harry Potter and the Philosopher's Stone. -Bloomsbury, 1997.
8. Särkkä H. Translation of proper names in non-fiction texts. Translation Journal, 11(1), 2007. – 342 p.
9. Американа. Англо-русский лингвострановедческий словарь Полиграмма, 1996/ http://www.americana.ru
10. Беленькая В.Д. Очерки англоязычной топонимики - М.: Высшая школа, 1977. -227с.
11. Важдаев В. Сказки английского народа. В кн. : Английские народные сказки. - М. : Гос. изд-во худ. лит., 1957. - С. 3 -10.
12. Кабакчи В.В. Лингвореволюция конца XX века и изменение лингвистической парадигмы / [Электронный ресурс]. Режим доступа: http: //www.phil .pu.ru/depts/01 /anglistikaXXI_01/29.htm
13. Моисеев А. И. Наименование лиц по профессии. (Структурная классификация). // Вестник ЛГУ- 1965- № 2. Серия истории, языка и литературы: Вып. 1.- С. 140-147.
14. Обруева Г. Х. К вопросу об изучении во фразеологических единицах оно-мастических компонентов (на материале современного английского языка). MATN LINGVISTIKASI (ilmiy to ‘plam). 2005.
15. Обруева Г. Х. О сдвиге имени собственного в разряд нарицательных слов во фразеологии английского языка. Вестник Челябинского государственного университета, (22), 2010. 100-102.
16. Обруева Г. Х. О внутрисистемных связях фразеологических единиц с ономастическим компонентом на материале английского языка (методика анализа). www. research-journal. org, 2012.
17. Обруева Г. Об опыте интерпретации выразительных возможностей фразеологических единиц с именами собственными. Иностранная филология: язык, литература, образование, 4 (1), 2019.
18. Обруева Г. Х. Инглиз тилидаги атоқли отларнинг фразеологик бирликлар структурасида ишлатилиши. Хорижий филология, 2, 2021. –Р. 66-69.
19. Obruyeva Gulchekhra Khamrokulovna The role of proverbs and idioms in the English language learning. International journal of advanced research in education, technology and management, 4(4), 2025. -P. 152-159.

20. Obruyeva Gulchekhra Khamrokulovna "A semantic analysis proper nouns in comparison with the common noun." Shokh Articles Library 1.1 2026.
21. Obruyeva G., & Usmonova K. The usage of junction in Uzbek language as a presupposition trigger. Student science research works, 73. 2020.
22. Obruyeva G. Atoqli ot komponentli frazeologik birliklarning semantik maqomi. «acta nuuz», 1(1.4), 2024. –P. 329-332.
23. Obruyeva G. The role of proper names in the formation of English phraseological units. Asian journal of scientific research and innovations, 1(1), 2026. – P.185-189.
24. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии - М.: Наука. -1988. - 192с.
25. Телия В. Н. Номинация//Лингвистический энциклопедический словарь. -М. 1991. - 336 с.
26. Шмелев Д.Н «Способы номинации в современном русском языке»// Избранные труды по русскому языку. - М., 2002. - 888 с.